

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATI-O'ZBEK SHE'RIYATINING GULTOJI

Ixtiyorova Durdona
JDPU 2- bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Abdulla Oripov she'riyatiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar va uning ba'zi she'rlari tahlili xususida so'z yuritiladi. Shuningdek shoir yaratgan she'rlari orqali o'zbek she'riyatining qimmatini oshirganligi xususida ham to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek she'riyati, ona, vatan, istiqlol, o'xshatish, muhabbat

ABSTRACT

this article discusses the general characteristics of Abdulla Oripov's poetry and the analysis some of his poems. It is also mentioned that the poet increased the value of Uzbek poetry through his poems.

Key words: Uzbek poetry, mother, homeland, independence, analogy, love.

O'zbek she'riyatida o'ziga xos davr yarata olgan ,o'zining falsafiy mushohadaga boy she'rlari bilan milliy ma'naviyatimiz yuksalishiga ulkan hissa qo'shgan, chinakam iste'dod egasi bo'lgan Abdulla Oripov o'zbek she'riyatiga yulduzday porlab kirib kelgan. Shu o'rinda men beixtiyor A.Oripov she'rlarini o'zbek she'riyatining gultoji deya ayta olaman. Shoir hayot, muhabbat, vatan, ona haqidagi she'rlari bilan insonlar tilida va dilida hali hanuz yashab kelmoqda.

A.Oripov nihoyatda qiyin bir davrda ijod qildi. Sening vataning butun Sovet Respublikasi deb turganlarida "O'zbekiston- vatanim mening", deb baralla ayta oldi. Ammo mana shu she'ri tufayli ham bir qancha qiyonqlarga duchor bo'ladi. Shoirning she'rlari har biri hayotdagi ma'lum bir voqeа, hodisalar bilan bog'liq, ya'ni har birining turkisi bor. Shoirning o'zi bu haqida shunday deydi: "Ayol" degan she'rim urushdan qaytmagan amakimning bevalariga bag'ishlangan.

Men ularning iztiroblarini ko'rib, kuzatib ulg'ayganman. Yoxud "O'zbekiston" qasidasining yozilishi-chi? Vataning butun Sovet Ittifoqi deb uqtirib turilgan bir paytda, O'zbekiston nima bo'ldi ekan, degan savol yuragimning tubida paydo bo'lib, hoynahoy, "Vatanim-O'zbekiston" deb she'r yozgan bo'lsam, tilimizning har qadamda yerga urilayotganini ko'rib "Ona tilim" she'rini yozgan bo'lsam kerak". [1] Abdulla Oripov she'riyatining o'ziga xos jihatlari haqida so'z yuritilar ekan, eng avvalo, uning she'rlarini xalq qalbiga yaqin qilgan xususiyatlardan biri uning xalqchilligi va xalqona

tilda yozilganligidir. Matyoqub Qo'shjonovning ushbu fikrlari ham buning yaqqol dalilidir: "Abdulla qaysi bir mavzuga qo'l urmasin, nima haqida she'r yozmasin, uning ko'zi oldida Ulug' Vatan turadi, o'sha ulug' Vatanning farzandi sifatida qo'liga qalam oladi. Shu sababdan uning she'rlari doim hayotbaxsh, pafosi baland, ovozi dadil, ruhi tetik".[2]

Abdulla Oripov she'rlarida inson tuyg'ulari, hislari, dardlari, armonlari shu qadar mahorat bilan tasvirlanadiki, uning she'rlarini nafaqat she'rlari balki she'rdagi bir nechta misralarni o'qiboq beixtiyor qalbimiz larzaga keladi.

Shoirning "Onajonim" she'ri ana shunday asarlardan biridir. Ushbu she'rni o'qir ekanmiz, har bir onasidan ajralgan insonning izardi ko'z oldimizda yaqqol namoyon bo'ladi:

Necha kunki yo'q oromim

Kelolmayman hushimga,

Onajonim kechalari

Kirib chiqar tushimga.[3]

Onasini yo'qotgan insonning, albatta ,hushi o'zida bo'lmasligi, oromini yo'qotishi ayni haqiqat. Onalar o'limidan keyin ham onaligicha qoladi, degan gap to'g'riligini shoir mana bu misralar orqali ifodalab bermoqda:

U kun chetda oh chekardim

G'ussalarning dastidan.

Sen otamga pul beribsan

Yostig'ingning ostidan.

Aytibsanki, onasizlik

Kelmasin hech o'yiga

Sarf qilingiz, menga emas

Abdullaning to'yiga .[4]

A. Oripov she'rlarida sun'iy o'xshatishlar, mantiqqa zid bo'lgan iboralarga deyarli duch kelmaymiz. U o'z asarlarida ayni hayot haqiqatini jonlantirib ko'rsatib bera oladi. "Tilla baliqcha", "Dorboz" "Shoir yuragi" kabi she'rlarida buning shohidi bo'lamiz. "Tilla baliqcha" she'rida shoirning Tilla baliqchani butun dunyoni bir hovuz ko'lmak deb tasavvur qilishi borasidagi fikrlari judayam o'rinlidir. Haqiqatan ham dunyo ko'rmagan inson ham butun dunyoni o'zi yashayotgan hududdan iborat deb biladi. Bu she'ri orqali shoir barchamizni kengroq fikr yuritishga, tor o'ylamslikka chorlayotgan bo'lsa ajab emas. "Dorboz" she'riga to'xtaladigan bo'lsak, bu she'rda ham muhim hayot haqiqati yashirin:

Odamlar, odamlar uni olqishlang

Qarang, u naqadar epchil va o'ktam.

Biz-chi ,eh...ba'zi bir ko'zi ochiqlar

Eplab yurolmaymiz katta yo‘lda ham.[5]

Bu misralardagi katta yo‘lni biz dunyo deb tushunsak, bu dunyoda to‘g‘ri yasholmaydigan insonlar ham anchagina . Ko‘pchiligidan bu dunyo sinovligini unutib qo‘yayapmiz. Shoир ijodi bilan tanishar ekanmiz, har bir she’rini o‘zimizga kerakli xulosani olamiz. Sheriyatning yangi qirralarini o‘zimiz uchun kashf etamiz. Uning “Uyqu”, “Yuzma-yuz” kabi asarlari istiqlol orzusi ila yaratilib, shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda g‘aflatda qolmaslikka chorlaydi. Zero “Uyqu” she’rida aytilganidek,” Har qanday uyqu ham o‘lim har qachon”. Hayotiy tajribalardan kelib chiqadigan bunday mushohadalar shoир ijodining o‘ziga xos qirralaridan biridir . O‘zbek xalqini qaddini yana bir pog‘ona ko‘targan mashhur qilgan shoир barcha o‘zbekning or-nomiusiga aylandi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki qalbida Vatanga muhabbat cheksiz bo‘lgan insonning farovon hayotini har narsadan ustun qo‘yadigan, shuningdek, muhabbat borasida dengizday qaysar, ummondek cheksiz, tog‘lardek ulug‘vor bo‘lgan insonni o‘z umrining qahramoni deyish mumkin. Abdulla Oripov ham ana shunday insonlardan desak xato bo‘lmaydi. Abdulla Oripovning hayot yo‘li yaratgan asarlari albatta qalbimizda mangu qolajak. O‘zbekiston uchun shoир ham she’rlari ham doim ardoqlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abdulla Oripov Tarjimayi holidan 2000-yil 23-yanvar
2. Qo‘shtonov M. Kamalakday serjilo- Abdulla Oripov Yillar armoni 3-bet
3. Abdulla Oripov Onajon 1- bet
4. Abdulla Oripov Onajon 2- bet
5. Abdulla Oripov Shoир yuragi 4-bet